

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 113 870,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 6,7 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi o'tgan yilning mos davri narxlariga nisbatan 121,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 10,6 % ga yetdi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2026- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	88 053,6	113 870,5	106,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	87 481,5	113 125,3	106,7
mahsulotlarga sof soliqlar	572,1	745,2	107,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	87 481,5	113 125,3	106,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 596,9	5 539,1	104,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	73 464,6	96 162,1	106,1
sanoat	70 865,4	92 627,6	105,4
qurilish	2 599,2	3 534,5	127,2
xizmatlar	9 420,0	11 424,1	112,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 206,7	3 987,2	116,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 313,9	1 632,4	121,1
boshqa xizmat tarmoqlari	4 899,4	5 804,5	107,0

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 102 108,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga yuqoridir.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	99,4	99,3
mahsulotlarga sof soliqlar	0,6	0,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	5,3	4,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	84,0	85,0
sanoat	81,0	81,9
qurilish	3,0	3,1
xizmatlar	10,7	10,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,7	3,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1,5	1,4
boshqa xizmat tarmoqlari	5,5	5,2




2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 99,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 0,7 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 4,9 % ni, sanoat tarmog'i 81,9 % ni, qurilish 3,1 % ni va xizmatlar sohasi 10,1 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,2 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 4,3 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – 6,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – (-0,2) f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,3 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – 1,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2025- yilning yanvar-iyunda – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 4,9 %), sanoatda – 105,4 % (81,9 %), qurilishda – 127,2 % (3,1 %), xizmatlar sohasida – 112,3 % ni (10,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 116,8 % (3,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 121,1 % (1,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,0 % dan (5,2 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi o'tgan yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 121,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 124,1 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 115,5 % qayd etildi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 16 566,2 mlrd. so'mni tashkil etdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 14 548,3 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 14,6 % ni (o'tgan yilning yanvar-iyun oylarida – 16,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan bog'liq.

**Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2025- yil

14 548,3

16,6 %

2026- yil

16 566,2

14,6 %

